

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Gr.09.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

MUXITDINOV ILHOMJON IXTIYORJON O‘G‘LI

**JINOYATCHILIKNING HUDUDIIY TARQALISHIGA
TA‘SIR ETUVCHI GEOGRAFIK OMILLAR TAHLILI
(FARG‘ONA VILOYATI MISOLIDA)**

11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

**Geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по географическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on geographical sciences**

Muxitdinov Ilhomjon Ixtiyorjon o‘g‘li

Jinoyatchilikning hududiy tarqalishiga ta’sir etuvchi geografik omillar tahlili
(Farg‘ona viloyati misolida)..... 3

Мухитдинов Илхомжон Ихтиёржон угли

Анализ географических факторов влияющих на территориальное
распространение преступности (на примере Ферганской области) 21

Mukhitdinov Ilhomjon Ikhtiyorjon ugli

Analysis of geographical factors influencing the territorial spread of crime
(on the example of Fergana region) 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Gr.09.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

MUXITDINOV ILHOMJON IXTIYORJON O‘G‘LI

**JINOYATCHILIKNING HUDUDIIY TARQALISHIGA
TA‘SIR ETUVCHI GEOGRAFIK OMILLAR TAHLILI
(FARG‘ONA VILOYATI MISOLIDA)**

11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PHD/Gr253 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdu.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Ahmadaliyev Yusupjon Ismoilovich**
geografiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Komilova Nilufar Qarshiboyevna**
geografiya fanlari doktori, professor

Maxmudov Bahodirjon Xakimjon o'g'li
geografiya fanlari falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot: **Namangan davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Gr.09.11 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 24-aprel soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Bo'stonsaroy ko'chasi 93-uy). Tel.: (+99899) 776-77-25, faks: (+99866) 239-11-40. E-mail: ik-geografiya2019@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ _____-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy, Tel.: (99) 776-77-25, faks: (+99866) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 10-aprel kuni tarqatildi.
(2026-yil 31-mart № 8-raqamli reyestr bayonnomasi).



S.B. Abbasov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, geografiya fanlari doktori, professor

B.A. Meliyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, g.f.f.d. (PhD), dotsent

M.R. Usmanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
geografiya fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda aholining farovon turmush tarziga salbiy ta'sir etuvchi eng murakkab muammolar orasida jinoyatchilik hamon yetakchilik qilib kelmoqda. Keyingi yillarda jinoyatchilik dinamikasi va tarkibidagi yuz bergan ijobiy o'zgarishlarga qaramay, jahonning ko'plab mamlakatlarida kriminogen vaziyat murakkabligicha qolmoqda. BMTning inson taraqqiyoti hisoboti (HDR) ma'lumotlariga ko'ra, "jahonda aholi soni yiliga 1-1,2 foizga, jinoyatchilik esa o'rtacha 5 foizga oshib bormoqda, bu holat dunyoning ayrim mintaqalarida bundan ko'proq ko'rsatkichlarga ega"¹. Shu sababli dunyoning barcha mintaqalarida jinoyatchilikning hududiy jihatlarini hisobga olgan holda uni oldini olish va keltirib chiqaradigan shart-sharoitlarini (ishsizlik, kambag'allik, aholining normadan ortiqcha zichligini...) bartaraf etishga qaratilgan mintaqaviy o'ziga hoslikni to'liq e'tiborga oladigan chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda ularni samarali amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda hozirgi vaqtda yuz berayotgan geosiyosiy beqarorlik va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan global xatarlar jinoyatchilikning turli xil ko'rinishlarini yuzaga kelishi va keng tarqalishiga sabab bo'lmoqda. Mazkur holatni xisobga olgan xolda jinoyatchilikning turli ko'rinishlari va ko'lami bilan kurashish, ularni oldini olishning yangi usul va vositalarini o'ylab topish maqsadida fanning turli yo'nalishlarida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, GIS imkoniyatlaridan foydalanib jinoyatchilikning hududiy statistik va kartagrafik taxlillariga e'tibor qaratish, jinoyatchilikka ta'sir qiluvchi boshqa omillar bilan bir qatorda ijtimoiy-geografik omillarni har tomonlama o'rganish, hududlarning aholi zichligi, urbanizatsiya darajasi, ichki va tashqi migratsiya, bandlik ko'rsatkichlarining umumiy jinoyatchilik statistikasi va jinoyat turlariga bogliqligini aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda va uning hududlarida so'nggi yillarda jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilikning oldini olish va sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirish borasida keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Bu yo'nalishda qabul qilingan huquqiy asoslar va konseptual yondashuvlar jinoyatlarning asosiy omillarini aniqlash, ularning hududiy xususiyatlarini o'rganish va oldini olishda yangi yondashuvlarni joriy etishga xizmat qilmoqda. Xususan, "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasida "Huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirish, jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini isloh qilish, jamoat xavfsizligini ta'minlash shuningdek, jinoyatlarning asosiy sabablari va hududiy xususiyatlarini aniqlash"² masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shu bois, hududiy jinoyatchilikka bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillarni chuqur tahlil etish va ularning o'zaro bog'liqligini aniqlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil, 26-martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar

¹ UN Human Development Report 2023-24. (BMT 2024-yil 13-martdagi Inson taraqqiyoti hisoboti) <https://hdr.undp.org/content/human-development-report-2023-24>

² <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-sonli Farmoni, 2024-yil 15-yanvardagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq etish, sohada ilm-fan yutuqlarini joriy etish bo'yicha chora - tadbirlari to'g'risida"gi 10-sonli Farmoni, 2025-yil 3-yanvardagi "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" 1-sonli Qarori hamda ushbu sohaga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" yo'nalishiga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dissertatsiya tadqiqotining nazariy va uslubiy asoslari bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy geografiya, iqtisodiyot, kriminologiya sohalari, jinoyatchilikni tadqiq etish va aniqlash masalalari bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlar hamda mutaxassislarining ilmiy uslubiy ishlanmalari mavjud.

Bu borada xorij mamlakatlaridan A. Quetelet, A.Guerry, E.Burgess, C.Shaw, H.McKay, S.Chainey, MDX mamlakatlaridagi geografdan N.N.Baranskiy, A.A.Bogdanov, Y.D.Bluvshsteyn, V.V.Voronina, A.A.Gabiani, R.G.Gachechiladze, Y.I.Gilinskiy, Y.V.Porosenkov, I.Helmer, A.I.Chistobaev, E.M.Shura; iqtisodchilar: A.G.Granberg, E.N.Tarnovski, V.D.Lavricheva, V.V.Kashirin, I.Fisher; kriminologlar, I.A.Aksenova, I.A.Gurova, A.I.Dolgovoy, V.M.Esipova, G.I.Zabryanskiy, M.S.Kruter, V.N.Kudryavtseva, V.V.Lunev, B.Svenson, G.I.Schneider, shuningdek, boshqa ko'plab olimlar ishlarida jinoyatchilik geografiyasi masalalari yoritilgan.

Biroq, bevosita jinoyatchilik geografiyasini o'rganishga bagashlangan ilmiy ishlar respublika miqyosida juda kam. Mustaqillik yillarida Y.Karakterov, M.Usmonaliyevlar muallifligida O'zbekistonda «Jinoyatchilikka qarshi kurashning kriminologik choralari» mavzusidagi monografiya nashr etildi (1995). Shu bilan birga hozirgi kungacha kriminologik muammolarga oid turli ko'lamdagi ilmiy ishlar V.A.Vlinder (1976), V.M.Bikov (1991), J.Alimardonov (2002), K.Mirzajonov (1980,1991), K.Abdurasulova (1999), M.X.Rustambayev (1990), U.Xaydarova (2002) va bonshalar tomonidan chop etilgan.

Yurtimizda aynan jinoyatchilikning geografik jihatlariga bag'ishlangan ishlardan A.A.Qayumov, A.S.Soliyev, Y.I.Ahmadaliyev, M.I.Nazarov, I.R.Turdimambetov, N.K.Komilova, B.X.Maxmudov singari geograflarning ishlarini keltirib o'tish mumkin. Yurtimizda dastlabki ilmiy maqolalar A.Soliyev tomonidan e'lon qilingan. Jumladan A.Qayumov tomonidan "O'zbekistonda jinoyatchilikning ijtimoiy geografik jihatlarini" mavzusida ilmiy ish olib borilgan, B.Maxmudov tomonidan Qo'qon shahri misolida geokriminogen vaziyat va uning ijtimoiy geografik jihatlarini o'rganilgan. Biroq, dastlabki tadqiqot ishi mamlakat

miqyosida jinoyatchilikni hududiy jihatlariga bag'ishlangan bo'lsa B.Maxmudov tomonidan bajarilgan tadqiqot ishida jinoyatchilikning hududiy jihatlarini bir shahar doirasidagina tahlil etilgan. Jinoyatchilikning mintaqaviy jihatlarini mavjudligini hisobga olganda, o'ziga xos tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy xususiyatlarga ega bo'lgan mintaqalardagi jinoyatchilikning hududiy tarqalishiga ta'sir etuvchi o'ziga xos omillarni ko'rib chiqish zarurati mavjud.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining PZ-201709930223 raqamli "Demokratik va xuquqiy jamiyatni rivojlantirishda yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish mexanizimini takomillashtirish" (2020-2024) amaliy tadqiqotlar loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Farg'ona viloyatida jinoyatchilikka ta'sir etuvchi geografik omillar tahlili asosida, jinoyatchilikni oldini olishga doir ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jinoyatchilikni geografik tadqiq etishning metodologik asoslarini tahlil qilish, jinoyatchilik darajasiga ta'sir etuvchi omillarning korrelyatsion bog'liqligini o'rganish;

aholi zichligi, urbanizatsiya, ishsizlik darajasi, migratsiyaning hududiy jihatlarini umumiy jinoyatchilikka ta'sirini ilmiy asoslash;

viloyatning iqtisodiy - ijtimoiy rivojlanishi tizimida jinoyatchilikning davriy dinamikasini aniqlash;

Farg'ona viloyatida jinoyatchilikni yuzaga keltiruvchi shart-sharoit va omillarni ilmiy asosda tasniflash hamda tahlil qilish.

Farg'ona viloyati tuman va shaharlarining umumiy jinoyatchilik darajasi hamda uning turlari bo'yicha tipologiyasini ishlab chiqish va qiyosiy tahlil o'tkazish;

jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan ilmiy asoslangan hududiy chora-tadbirlar tizimini shakllantirishga xizmat qiluvchi konsepsiya ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti Farg'ona viloyatidagi jinoyatchilikning hududiy tarqalishi olingan.

Tadqiqot predmeti Farg'ona viloyatidagi jinoyatchilikning hududiy tarqalishiga ta'sir etuvchi geografik omillar va ularning o'zaro jinoyatchilik bilan aloqadorligini tahlil etishdir.

Tadqiqot usullari: dissertatsiyada statistik taxlil, qiyosiy-tipologik, kartografik, tarixiy qiyoslash, empirik, matematik, va GAT texnologiyalari kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jinoyatchilikning hududiy tarqalishiga mintaqaviy geografik omillarning (aholi zichligi, urbanizatsiya darajasi, bandlik va migratsiya) ta'sir darajasini baxolash uslubiyoti Pearson koeffitsiyentidan foydalanish asosida takomillashtirilgan;

jinoyatchilik darajasiga ta'sir qiluvchi omillarning tipologik taxlili asosida Farg'ona viloyatining tuman va shaharlari "yuqori xavfli", "o'rta xavfli" va "past xavfli" toifalarga ajratilgan va xaritasi yaratilgan;

Farg'ona viloyati ma'muriy birliklarida jinoyatchilikga ta'sir qiluvchi omillarning davriy (2014–2024) dinamikasini kompleks tahlil qilish asosida jinoyatchilikning uchta ssenariy bo'yicha (optimistik, real, pessimistik) rivojlanish tendensiyasini ko'rsatuvchi qisqa, o'rta va uzoq muddatli bashoratli xaritalar ishlab chiqilgan;

Farg'ona viloyati misolida jinoyatchilikni oldini olish va unga qarshi kurashishda hududiy rejalashtirish, mahalliy darajadagi profilaktika ishlarini kuchaytirish va takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Farg'ona viloyatida jinoyatchilikning hududiy jihatlari va unga ta'sir etuvchi geografik omillarning o'zaro bog'liqligi korrelyatsion taxlil asosida ochib berilgan;

Jinoyatchilik darajasining ma'muriy birliklar bo'yicha farqlanishi aniqlanib, geografik axborot tizimlari (GAT) vositalaridan foydalangan holda interaktiv xaritalar yaratilgan;

Hududiy jihatdan jinoyatlar ko'proq sodir etilayotgan, havf darajasi yuqotri bo'lgan tuman, shaharlar va ularning alohida qismlari uchun jinoyatchilikni kamaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi hamda Farg'ona viloyati IIB fond materiallari va hisobotlaridan, viloyat ichki ishlar organlarida faoliyat olib borayotgan xodimlar orasida o'tkazilgan sotsiologik so'rovnoma asosida bajarilganligi, shuningdek, tadqiqot doirasida yaratilgan kartalar, xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishda keltirilgan materiallar, dissertatsiya ishining nazariy qoidalari, xulosalari va tavsiyalari Ichki ishlar vazirligi hamda huquqni muhofaza qiladigan organlari tomonidan davlatning jinoyatchilikka qarshi kurashishga qaratilgan sa'y-harakatlarini takomillashtirish sohasida foydalanishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishda geografik, iqtisodiy va kriminalistika fanlar bo'yicha o'quv jarayonida o'quv-metodik maqsadlarda, mintaqaviy jinoyatlarning oldini olish muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishda, jinoyatchilikka qarshi kurashish dasturlarini ishlab chiqishda, axborot-metodik ta'minot vositasi sifatida hamda dissertatsiyada ishlab chiqilgan uslubiy qoidalaridan respublikamizning boshqa hududlarida mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarni olib borishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jinoyatchilikning hududiy tarqalishiga ta'sir etuvchi geografik omillar tahlili bo'yicha olingan natijalar asosida:

Jinoyatchilikning hududiy tarqalishiga mintaqaviy geografik omillarning (aholi zichligi, urbanizatsiya darajasi, bandlik va migratsiya) ta'sir darajasini

baxolash uslubiyoti Pearson koeffitsiyentidan foydalanish asosida takomillashtirilgan uslubiyotidan O‘zbekiston Respublikasi Oily Majlisi Qonunchilik palatasining Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oily Majlisi Qonunchilik palatasining Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasining 2025-yil 28-oktabrdagi 04/9-08/14-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, viloyatning aholi zichligi haddan yuqori bo‘lgan tumanlari (Toshloq, Uchko‘prik), sohta urbanizatsiya elementlari kuzatilgan shahar va shaharchalarda (Hamza, Avval), ishsizlik va migratsiya jarayonlarini tartibga solish mexanizmlari takomillashtirish imkonini bergan;

Jinoyatchilik darajasiga ta‘sir qiluvchi omillarning tipologik taxlili asosida Farg‘ona viloyatining tuman va shaharlari “yuqori xavfli”, “o‘rta xavfli” va “past xavfli” toifalarga ajratilgan va ishlangan xaritalardan O‘zbekiston Respublikasi Oily Majlisi Qonunchilik palatasining Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oily Majlisi Qonunchilik palatasining Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasining 2025-yil 28-oktabrdagi 04/9-08/14-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada jinoyatchilikni oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha ma‘muriy tumanlarda olib borilayotgan ishlarda kuch va vositalarni muofiqlashtirish, “yuqori xavfli” hududlarga (Farg‘ona sh., Qo‘qon sh., Oltiariq t.) tezkorlik bilan qo‘shimcha kuch va vositalar ajratish imkonini bergan;

Farg‘ona viloyati ma‘muriy birliklarida jinoyatchilikga ta‘sir qiluvchi omillarning davriy (2014–2024) dinamikasini kompleks tahlil qilish asosida jinoyatchilikning uchta ssenariy bo‘yicha (optimistik, real, pessimistik) rivojlanish tendensiyasini ko‘rsatuvchi bashoratli xaritalardan O‘zbekiston Respublikasi Oily Majlisi Qonunchilik palatasining Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oily Majlisi Qonunchilik palatasining Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasining 2025-yil 28-oktabrdagi 04/9-08/14-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, viloyatning pessemistik ssenariy asosida jinoyatchilik rivojlanish ehtimoli bo‘lgan ma‘muriy birliklarida mazkur xolatni oldini olish uchun viloyat IIB, kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi, iqtisodiyot va moliya boshqarmalari bilan ishlab chiqiladigan rejalashtirish ishlarini muofiqlashtirish imkoniyati yaratilgan;

Farg‘ona viloyati misolida jinoyatchilikni oldini olish va unga qarshi kurashda hududiy rejalashtirish, mahalliy darajadagi profilaktika ishlarini kuchaytirish va takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Oily Majlisi Qonunchilik palatasining Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oily Majlisi Qonunchilik palatasining Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasining 2025-yil 28-oktabrdagi 04/9-08/14-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, viloyatida olib boradigan profilaktika ishlarini ma‘muriy tumanlar kesimida jinoyat turlari bo‘yicha muofiqlashtirish, ixtisoslashtirilgan tezkor qidiruv faoliyatini yo‘lga qo‘yish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda, jumladan, 3 ta xalqaro va 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta ilmiy maqola, shundan 4 tasi respublika va 4 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Asosiy matnning sahifalardagi umumiy hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning joriy qilinishi, tadqiqot mavzusi doirasida nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Jinoyatchilikni geografik tadqiq etishning nazariy metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida jinoyatchilik geografiyasining asosiy yo'nalishlari, jinoyatchilikning hududiy tarqalishiga geografik omillarning ta'siri va ularni baholash masalalari ko'rib chiqildi va tadqiq etildi.

Jahonda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki xorij mamlakatlarda jinoyatchilik geografiyasi bo'yicha ko'proq sotsiologlar va kriminologlar shug'ullangan bo'lsa, MDH davlatlarida bu yo'nalishda faoliyat yuritgan mutaxassislar orasida geograflar ko'p hisoblanadi.

Jinoyatchilik geografiyasi ijtimoiy geografiyaning nisbatan yosh, ammo jadal rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biridir. Uning shakllanishi XIX asrning ikkinchi yarimida G'arbiy Yevropada, ijtimoiy statistikaga asoslangan dastlabki kriminologik tadqiqotlar bilan bevosita bog'liq.

Dastlabki bosqich XIX asrga tog'ri keladi, ushbu davrning yorqin vakillari belgiyalik A. Quetelet va fransuz A. M. Guerry jinoyatchilikni statistik usulda o'rgangan va uni hududiy farqlanishini ta'kidlab, “jinoyatlarning izchilligi” qonuniyatini ilgari surganlar. Ular o'z tadqiqotlarida jinoyatlarning fasliy o'zgarishi va iqlim omilining ta'siri kabi geografik bog'liqliklarni o'rgandilar.

XX asr o'rtalarida Amerika kriminologik maktabi, ayniqsa Ch.Shaw va H.McKayning (1942) “Konsentrik doiralar nazariyasi” jinoyatchilik geografiyasi uchun asosiy nazariy bazani yaratdi. Ushbu nazariya urbanizatsiya markazlarida ijtimoiy dezinformatsiya va migratsion faollik hisobiga jinoyatchilikning yuqori konsentratsiyasini ilmiy jihatdan asoslashga zamin yaratdi.

Jinoyatchilik geografiyasining zamonaviy rivojlanish bosqichi XXI asrda kuzatildi. Hozirgi kunda fan o'z rivojlanishining yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Geografik axborot tizimlari (GIS), masofaviy zondlash usullarining joriy etilishi tufayli jinoyatchilik geografiyasi geokriminologiya nomini oldi.

Jinoyatchilikning hududiy jihatlari o'rganish G.Felis (1968), C.R. Jefferi (1971), K.Shmid (1880), T.Morris (1957), A.Mergen (1968), D.T.Herbert (1979), G.Pyle (1980), J.Hellmer (1981), D.Harvey (1996, 2009), A.V.Kulagin (2009), R.Uayt (2009), T.Eisenhardt (2012), J.Synnott (2013), E.Aksoy (2017), A.Piscitelli (2018) D.Johnson (2018), H.F.Orsini (2018), S.Chainey (2021) kabi xorijiy olimlarning ishlarida uchraydi.


Jinoyatchilik geografiyasi jinoyatchilik hodisasini oddiy statistik ko'rsatkichlar yig'indisi sifatida emas, balki ma'lum bir hududda shakllangan murakkab ijtimoiy-geografik tizim sifatida o'rganadi. Ushbu fan jinoyatchilikning hududiy tarqalishi, konsentratsiyasi, dinamikasi va hududiy farqlanish jarayonlariga ta'sir etuvchi geografik, ijtimoiy, iqtisodiy va demografik omillar o'rtasidagi bog'liqliklarini aniqlaydi va tahlil qiladi.

Jinoyatchilik geografiyasining asosiy vazifalari ma'muriy birliklar kesimida jinoyatchilikning joylashuvidagi farqlarni aniqlash, hududlarni jinoyatchilik darajasi, tipi va sababiy omillari bo'yicha guruhlash, jinoyatchilikning kelajakdagi rivojlanishini matematik-geografik usullar (ekstrapolyatsiya, regressiya) yordamida ilmiy prognoz qilish, jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan profilaktik kuchlar va resurslarni hududiy-maqсадli taqsimlash uchun ilmiy asos yaratishdan iborat. Asosiy yo'nalishlari sifatida aholi zichligi, ishsizlik, migratsiya, turmush darajasi kabi ijtimoiy omillarning jinoyatchilikka ta'sirini tahlil qilish, transport yo'laklari, sanoat va savdo obyektlari, shaharsozlik xususiyatlarining jinoyatchilikning tarqalishiga ta'sirini tahlil qilish, turli viloyatlar, shahar va qishloqlar o'rtasidagi jinoyatchilik darajasidagi tafovutlarni qiyosiy o'rganishdan iborat. Ushbu yo'nalishlar doirasida Farg'ona viloyati misolida o'tkazilgan mazkur tadqiqot hududiy xavf-xatarlarni ilmiy asoslash va profilaktik chora-tadbirlar samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Jinoyatchilikning hududiy tarqalishiga ta'sir etuvchi omillarni ilmiy jihatdan tahlil qilish va tizimlashtirish maqsadida, ularni geografiya fanining tarkibiy yo'nalishlari asosida to'rt guruhga ajratib o'rganish maqsadga muvofiqdir (T.V.Zabelina, 2008., S.G.Zagoryan, 2016). Bular ijtimoiy, iqtisodiy, tabiiy va siyosiy-geografik omillar hisoblanadi. Ushbu tizimli yondashuv jinoyatchilikni kompleks baholash imkonini beradi (1-rasm).

Muallif tomonidan jinoyatchilikning hududiy tarqalishiga ta'sir etuvchi geografik omillar ichida ijtimoiy-demografik ko'rsatkichlarga alohida ahamiyat qaratilgan. Chunki jinoyatchilikning kelib chiqishi, uning darajasi va dinamikasi to'g'ridan-to'g'ri aholi tarkibi va ijtimoiy muhit bilan bog'liq. Aholi soni va zichligi, turmush darajasi, bandlik va ishsizlik holati, daromadlar darajasi, ijtimoiy tengsizlik, urbanizatsiya va migratsiya kabi omillar jinoyatchilikka sezilarli ta'sir ko'rsatishi taxlil etilgan ilmiy adabiyotlar va statistik taxlillar natijasida aniqlandi.

Mazkur omillarni tizimli va korrelyatsion tahlil qilish jinoyatchilikning haqiqiy geokriminogen mohiyatini anglash va alohida profilaktik choralarni belgilashga ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.



1-rasm. Jinoyatchilikning hududiy tarqalishiga ta'sir etuvchi geografik omillar tahlili.

(Chizma ilmiy adabiyotlar tahlili asosida muallif tomonidan tuzilgan).

Jinoyatchilikning hududiy tarqalishiga ta'sir etuvchi geografik omillarni chuqur va tizimli tahlil qilish o'zaro bog'liq bo'lgan bir nechta ilmiy tadqiqot usullarini kompleks qo'llashni talab etadi.


Mazkur tadqiqotda statistik-matematik, ekstrapolyatsiya, prognozlash, kartografik va GAT, qiyosiy-tipologik, sotsiologik usullar hamda korrelyatsion-regression tahlil o'tkazish orqali Farg'ona viloyati misolida jinoyatchilikning hududiy tarqalish qonuniyatlari ilmiy asoslandi va amaliy tavsiyalarning ishonchliligi ta'minlandi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Farg'ona viloyatining umumiy kriminogen vaziyati va uning hududiy farqlari**" deb nomlanib, viloyatda jinoyatchilikning hozirgi holati va hududiy differentsiatsiyasi tahlil qilingan, jinoyatchilikning tarkibi va dinamikasi aniqlangan va asoslab berilgan. Hamda geokriminogen vaziyatni shakllantiruvchi asosiy omillar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, viloyat ma'muriy birliklarining aholi zichligi, urbanizatsiya, ishsizlik va migratsiya ko'rsatkichlari bo'yicha tipologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot obyekti sifatida Farg‘ona viloyati olingani bejiz emas, chunki viloyatdagi jinoyatchilik darajasi Respublikamizdagi eng yuqori ulushlardan birini egallaydi. Viloyatda jinoyatlarning sodir etilishida aholi zichligi, urbanizatsiya darajasi, bandlik va migratsiya kabi omillar muhim rol o‘ynaydi.

So‘nggi yillarda (2018–2024) Farg‘ona viloyatida jinoyatlar soni keskin o‘zgarishlarga uchradi. 2018 yilda 5,3 ming jinoyat qayd etilgan bo‘lsa, 2020 yilda hisobga olish tizimidagi o‘zgarishlar va pandemiya ta‘siri tufayli ular soni 2,19 barobar oshib, 10 952 taga yetdi. 2021 yilda jinoyatchilik eng yuqori nuqtaga chiqdi, bunda 100 ming aholiga to‘g‘ri keladigan jinoyatlar darajasi qariyb 500 tani tashkil etdi.

2022–2023 yillarda davlat dasturlarining samarasi natijasida jinoyatlar sonida sezilarli pasayish kuzatildi (2022 yilda 23,7% ga, 2023 yilda 14,2% ga kamaygan). Ammo 2024 yilda jinoyatchilik yana biroz o‘shib (9,7% ga), 14 289 tani tashkil etdi. Bu holat aholi sonining o‘shishi va mehnat migrantlarining qaytishi hisobiga ishsizlik darajasi ortishi kabi ijtimoiy-geografik omillar bilan bog‘liqdir (2-rasm).




2-rasm. 2018–2024 yillarda Farg‘ona viloyatida qayd etilgan jinoyatlar dinamikasi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar Farg‘ona viloyatidagi jinoyatchilik tarkibining asosiy qismini iqtisodiy va mulkiy jinoyatlar (xususan, o‘g‘irlik va firibgarlik) tashkil etishini ko‘rsatdi. Aynan shu yo‘nalishda so‘nggi yillarda eng yuqori o‘shish dinamikasi kuzatildi (3-rasm).

Bu tendensiya, birinchi navbatda, viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlaridagi muammolar bilan izohlanadi. Jumladan, ishsizlik darajasi, migratsiya jarayonlarining intensivligi va aholi daromadlaridagi hududiy tafovutlar mazkur jinoyatlarning sodir etilishiga asosiy determinant omillar sifatida xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, jinoyatchilik o‘shishining ikkinchi sababi sifatida huquq-tartibot organlarining mazkur jinoyat turlarini aniqlash va ochish borasidagi faoliyatining kuchayishi va statistik hisobga olish tizimining takomillashgani ham

o‘z ta‘sirini o‘tkazgan. Hozirgi kunda mulkiy va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish Farg‘ona viloyatidagi huquqni muhofaza qiluvchi idoralar uchun strategik va ustuvor vazifa bo‘lib qolmoqda.



3-rasm. Farg‘ona viloyatida mulkka qarshi jinoyatlar dinamikasi.

Jinoyatchilikni shakllantiruvchi omillar ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy, huquqiy va psixologik omillar – viloyat miqyosida ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Ishsizlik va yoshlar bandligining yetishmasligi ba‘zi hududlarda o‘g‘irlik va firibgarliklarning ko‘payishiga zamin yaratgan bo‘lsa, oilaviy tarbiya va nazoratning sustligi ayrim voyaga yetmaganlarni jinoyat yo‘liga kirishiga sabab bo‘lmoqda.

Tadqiqot ishining **“Farg‘ona viloyatida jinoyatchilikni hududiy tarqalishiga geografik omillar ta‘siri”** deb nomlangan uchinchi bobida viloyatning jinoyatchilik darajasi bo‘yicha hududiy tipologiyasi, jinoyatchilik ko‘rsatkichlari bo‘yicha qiyosiy tahlili hamda viloyatda kriminogen vaziyatni prognozlash va oldini olishning hududiy jihatlari o‘rganilgan.

Jinoyatchilikka o‘z ta‘sirini o‘tkazadigan har bir omil ya‘ni ishsizlik, aholi zichligi, urbanizatsiya va migratsiya Pearson korrelyatsiya koeffitsiyenti (r) quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$r = \frac{n(\sum xy) - (\sum x)(\sum y)}{\sqrt{[n\sum x^2 - (\sum x)^2][n\sum y^2 - (\sum y)^2]}} \quad (1)$$

Bu yerda: x – jinoyatchilikka ta‘sir etuvchi omil (aholi zichligi, urbanizatsiya...), y – jinoyatlar soni, n – aniqlanayotgan hudud yoki jinoyat turlarining soni, $\sum x$ – aniqlanayotgan hududlardagi omilning umumiy yeg‘indisi, $\sum y$ – jinoyatlarning umumiy yeg‘indisi, $\sum xy$ - jinoyatchilikka ta‘sir etuvchi omil yeg‘indisi hamda umumiy jinoyatlar soni ko‘paytmasi.

Yuqoridagi formula bo'yicha Farg'ona viloyatining aholi zichligi, urbanizatsiya va ishsizlik darajasining jinoyatchilikka ta'siri 2024-yil ma'lumotlari asosida hisoblab chiqildi.

Pearson formulasiga qo'yish uchun yakuniy qiymatlar. Bu yerda: n - 19 ta Farg'ona viloyati ma'muriy birliklar soni, $\sum x = 22100.4$ viloyat ma'muriy birliklaridagi aholi zichligining yeg'indisi, $\sum y = 14289$ viloyatdagi jami jinoyatlar soni, $\sum x^2 = 59742008.7$ viloyatda aholi zichligi kvadratlarining yeg'indisi, $\sum y^2 = 18477974$ viloyat ma'muriy birliklarida jinoyatlar soni kvadratlarining yeg'indisi, $\sum xy = 315792615.6$ viloyatdagi aholi zichligi va jinoyatlar sonining ko'paytmasi.

$$r = \frac{19(315792615.6) - (22100.4)(14289)}{\sqrt{[19(59742008) - 488427680.1][19(18477974) - 204175521]}} = 0.82$$

Korrelyatsiya natijalariga sifat jihatdan baxo berish uchun statistikada Cheddok shkalasi qo'llaniladi. Ushbu koeffitsiyent bo'yicha -1 va +1 oraliq'idagi bog'lanishlar tasvirlanadi. Bunda 0:+1 oraliq'ida bo'lsa to'g'ri bog'lanish, 0:-1 oraliq'i esa teskari bo'g'lanishni ifodalaydi. -0.1:+0.1 oraliq'ida hech qanday statistik bo'g'lanish mavjud emasligini bildiradi.

Yuqoridagi tahlildan ko'rinadiki, aholi zichligi (x) va jinoyatchilik darajasi (y) o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsienti (r=0.82) bu kuchli musbat bog'liqlik darajasiga to'g'ri keladi. Demak Farg'ona viloyatida jinoyatchilik darajasiga aholi zichligi va uning ortib borishi kuchli ta'sir o'tkazmoqda. Urbanizatsiya hamda ishsizlik darajasi ham ushbu formula bo'yicha hisoblab chiqilgan (1-jadval).

1-jadval

Farg'ona viloyatining jinoyatchilik va unga ta'sir etuvchi omillar bilan korrelyatsiyasi

O'zgaruvchilar	Korrelyatsiya (r)	Izoh
Aholi zichligi ↕ Jinoyatchilik	0.82	(0<0.8) Kuchli musbat bog'lanish, aholi zichligi qancha yuqori bo'lsa hududlarda jinoyatlar ko'proq sodir bo'lishiga asosiy sababchilardan biri bo'ladi.
Urbanizatsiya ↕ Jinoyatchilik	0.67	(0<0.7) O'rtacha musbat bo'g'lanish, ya'ni urbanizatsiya darajasi yuqori bo'lsa, jinoyatlar soni shuncha ko'p. Bu shahar aholisi zich joylashgan joylarda jinoyatchilik xavfi ortishini ko'rsatadi.
Ishsizlik darajasi ↕ Jinoyatchilik	0.38	(0<0.4) Zaif musbat bog'lanish, ishsizlik darajasi jinoyatchilik darajasi o'z ta'sirini o'tkazadi lekin bog'lanish juda yuqori emas.

Jadval muallif tomonidan Farg'ona viloyati IIB va statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblab chiqilgan.

Hisob kitob ishlari bo'yicha olingan natijalar taqqoslaganda jinoyatchilik bilan eng katta bog'liqlik aholi zichligiga to'g'ri keladi (r=0.82). Farg'ona viloyatida shaharlardagi yuqori aholi zichligiga ega hududlarda (Farg'ona, Qo'qon, Marg'ilon shaharlarida) jinoyatlar soni ham nisbatan yuqoriligi ko'rinadi. Bu omil


viloyatda jinoyatchilikka eng kuchli ta'sir qiluvchi omil deb olinishi mumkin. Urbanizatsiya darajasi ham jinoyatchilik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, shaharlarning hammasida yuqori bog'liqlik ($r=0.67$) mavjudligi aniqlandi. Ishsizlik darajasi va jinoyatchilik o'rtasida nisbatan zaif bog'liqlik ($r=0.38$) aniqlandi. Bu shuni ko'rsatadiki, ishsizlik jinoyatchilikka o'z ta'sirini o'tkazsa-da, aholi zichligi va urbanizatsiya kabi omillar qatorida uning ahamiyati u qadar yuqori emas.

Aholi zichligi, urbanizatsiya hamda ishsizlik darajasi va jinoyat turlari o'rtasidagi korrelyatsiyani hisoblash orqali aynan ushbu omillar qaysi biri jinoyat turi bilan uzviy bog'liq hamda qanday chora tadbirlar ishlab chiqish orqali jinoyatchilikni oldini olish uchun tavsiyalar berishga imkon yaratadi.

Yuqoridagi (1) formula bo'yicha urbanizatsiya va kiberjinoyat o'rtasidagi korrelyatsiya hisoblandi. Bu yerda: 19 ta Farg'ona viloyati ma'muriy birliklar soni, 4772970 viloyatdagi urbanizatsiya va kiberjinoyatlar sonining ko'paytmasi, 1086 viloyat ma'muriy birliklaridagi urbanizatsiyaning yeg'indisi, 4395 viloyatdagi jami kiberjinoyatlar soni, 55839.3 viloyatdagi urbanizatsiya kvadrlarining yeg'indisi, 19172 viloyat ma'muriy birliklarida kiberjinoyatlar soni kvadrlarining yeg'indisi.

$$r = \frac{19(4772970) - (1086)(4395)}{\sqrt{[19(55839.3)(1179396)] [19(191722) - (19316025)]}} = 0.92$$

Olib borilgan korrelyatsion tahlil natijalariga ko'ra, urbanizatsiya darajasining oshishi kiberjinoyatlar sonining ko'payishi bilan juda yuqori musbat korrelyatsion bog'liqlikka ega ekanligi aniqlandi. Shuningdek, urbanizatsiya va aholi zichligining alohida jinoyatchilik turlariga ta'siri turlicha bo'lib ega bo'lib, bu (r) korrelyatsiya koeffitsiyenti yordamida hisoblab chiqilgan (4-rasm).



4-rasm. Farg'ona viloyatining urbanizatsiya, aholi zichligi va jinoyat turlarining korrelyatsiyasi.

Har bir jinoyat turi uchun aholi zichligi bilan korrelyatsiya koeffitsiyenti hisoblandi. Kuchli musbat korrelyatsiya (0.7-0.9): Kiberjinoyatlar, ochilmagan jinoyatlar va firibgarlik aholi zichligi o'sishi bilan sezilarli ko'payadi. O'rtacha

